

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi
va “Farg‘ona davlat universiteti” o‘rtasida yuridik kadrlarni tayyorlash
sohasidagi o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida
M E M O R A N D U M**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi (keyingi o‘rinlarda – Oliy sud) nomidan raisning birinchi o‘rinbosari **Muslimov Ikram Tuxtamuratovich** bir tomondan, “Farg‘ona davlat universiteti” (keyingi o‘rinlarda – universitet) nomidan rektor **Shermuhhammadov Bahodir Shermuhhammadovich** ikkinchi tomondan, (birgalikda keyingi o‘rinlarda – Tomonlar) “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Sudlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq ushbu Memorandumni quyidagilar haqida tuzdilar.

1-modda. Memorandum predmeti

1. Ushbu Memorandumning predmeti Tomonlar o‘rtasida uzoq muddatli, samarali va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, ekspertlar va malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda kadrlarni tayyorlash sohasida qo‘shma loyihalar va tadbirlarni tashkil etish hamda o‘tkazishga qaratilgan sheriklik munosabatlarini o‘rnatish va universitetdagi o‘quv jarayonini zarur axborot bilan ta’minlashdan iborat.

2. Tomonlar umumiy amaliyotdan kelib chiqqan holda, tenglik, ijobiy maqsad, hurmat va ishonch asosida hamkorlikni amalga oshiradilar.

3. Ushbu Memorandumni amalga oshirish jarayonida Tomonlar o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiradilar.

**2-modda. Tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikning
maqsad va vazifalari**

4. Ushbu Memorandum doirasida Tomonlar quyidagi ustuvor vazifalarni hal etish bo‘yicha birgalikdagi harakatlarni amalga oshirishga kelishib oldilar:

Oliy sud tizimiga keyinchalik ishga joylashtirish maqsadida universitet talabalarini tayyorlash va jalb qilish bo‘yicha qo‘shma tadbirlar va loyihalarni ilgari surish va amalga oshirishda ko‘maklashish hamda o‘zaro hamkorlik qilish;

yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni hamda oliy ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi innovatsion hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

Oliy sud tizimi hamda universitetning kelgusi istiqboldagi faoliyatini rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirishga zamin yaratuvchi dolzarb muammoli mavzular bankini yaratish va ushbu mavzular bo'yicha hamkorlikda tadqiqotlar olib borish;

Oliy sud tizimi va yurisprudensiyada bugungi kunda mavjud dolzarb muammoli mavzular bo'yicha ilmiy maqolalar, monografiyalar tayyorlash va nashr etish, seminarlar, respublika va xalqaro miqyosdagi konferensiyalar tashkil etish;

universitet professor-o'qituvchilari, doktorantlar, tayanch doktorantlar hamda mustaqil tadqiqotchilarning stajirovkasini hamda bakalavriat va magistraturada tahsil olayotgan talabalarning ishlab chiqarish va malakaviy amaliyotlarini Oliy sud tizimida samarali tashkil etish;

sud binolarida yaratilgan imkoniyatlar, sud jarayonlariga tatbiq etilayotgan zamonaviy texnologiyalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan yaqindan tanishish;

Oliy sud tizimida ishlash istagini bildirgan universitetning bakalavriat va magistratura bosqichi talabalarini sud organlariga ishga tavsiya qilib borish hamda bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarini tashkil etish;

sud organlarining kadrlar zaxirasini shakllantirish bo'yicha komissiyalari tomonidan universitet bitiruvchilari o'rtasida bevosita suhbatlar tashkil etish, suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarni Oliy sud va quyi sudlarga yo'llanma asosida ishga tavsiya etish;

universitetda ta'lim olish davrida o'zlashtirish ko'rsatkichi 90 foiz va undan yuqori bo'lgan bitiruvchi talabalarni rektor tavsiyanomasi asosida ishga yo'naltirish;

universitet talabalarining nazariy bilimlarini amaliyot bilan uzviyligini ta'minlash maqsadida ularni Oliy sud huzurida tashkil etilgan "Bo'lajak sud xodimlari" klubiga faol jalb etish;

universitet talabalarini o'rtasida qonun hujjatlarini bilish, talqin qilish va qo'llash, tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash va huquq ijodkorligi faoliyatini amalga oshirish bo'yicha tanlovlarni tashkil etish;

yuridik kadrlarni tayyorlash borasida xorijiy mamlakatlarning tajribasini o'rganishni tashkil etish.

Oliy sud bilan kelishgan holda Oliy sud tizimida faoliyat olib borayotgan yuqori malakali sudya va sud apparati xodimlarini universitetning o'quv jarayonlariga jalb qilish.

3-modda. O'zaro hamkorlik shakllari

5. O‘zaro hamkorlikning shakllari qiyudagilardan iborat:
axborot almashish hamda Tomonlar vakillarining uchrashuvlarini tashkil etish;

Tomonlar faoliyatiga taalluqli va o‘zaro manfaatli masalalar bo‘yicha maslahatlashuvlar o‘tkazish;

Memorandumdan ko‘zlangan maqsadlarga erishishga qaratilgan qo‘shma tadbirlar va loyihalarni rejalashtirish (tegishli chora-tadbirlar va dasturlar ishlab chiqish) va amalga oshirish;

Tomonlar o‘rtasidagi hamkorlik maqsadlariga erishishga qaratilgan shartnomalar (bitimlar) tuzish.

4-modda. Hamkorlikni tashkil etish

6. Tomonlar o‘rtasida ushbu Memorandumga qo‘shimcha ravishda hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasi imzolanishi mumkin va ushbu yo‘l xaritasi Tomonlar o‘rtasida imzolanganidan so‘ng Memorandumning ajralmas qismi hisoblanadi.

5-modda. Qo‘shimcha shartlar

7. Ushbu Memorandum Tomonlarga hech qanday huquqiy va moliyaviy majburiyatlarni yuzaga keltirmaydi, bu kabi majburiyatlar yuzaga kelishi uchun Tomonlar o‘rtasida alohida fuqarolik shartnomalar tuzilishi talab etiladi.

8. Ushbu Memorandum dastlabki kelishuv bo‘lib, sheriklik shartnomasi hisoblanmaydi va uning qoidalarini bajarmaslik Tomonlar uchun javobgarlikni keltirib chiqarmaydi (Tomonlardan hech biri boshqa tomonga Memorandumning amalga oshirilishi (muvaffaqiyatsizligi), amal qilishining tugashi yoki tugatilishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararni qoplashga majbur bo‘lmaydi).

9. Ushbu Memorandum doirasida hech bir tomon boshqa tomon yoki Tomonlarning majburiyatlari yoki qarzdorliklari bo‘yicha mas‘ul yoki qarzdor hisoblanmaydi va hech bir tomon tegishli alohida shartnomalar tuzmasdan turib, boshqa tomon yoki Tomonlarning vakili sifatida ish olib borishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

10. Har bir tomon ushbu Memorandum shartlarini amalga oshirishdan kelib chiqadigan xarajatlarni (agar tegishli kelishuvlarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa) o‘z zimmasiga oladi.

11. Har bir tomon ushbu Memorandum doirasidagi hamkorlikka oid boshqa tomon bilan oldindan kelishilmagan holda ochiq bayonotlar bermaydi hamda bu haqida ommaviy axborot vositalarida ma'lumotlar tarqatmaydi.

6-modda. Qonunchilikka rioya qilish

12. Tomonlar ushbu Memorandumni, shuningdek, alohida kelishuvlarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiradilar.

13. Tomonlar boshqa yuridik shaxslar bilan predmeti, hajmi va shartlari bo'yicha o'xshash shartnomalar tuzishga haqli.

7-modda. Maxfiylik

14. Tomonlar ushbu Memorandum va boshqa memorandumlar doirasida tuzilgan alohida shartnomalar bo'yicha boshqa tomondan olingan har qanday ma'lumotlarni sir saqlashga majburdirlar.

15. Tomonlar ushbu Memorandum shartlari va maxfiy ma'lumotlar sifatida yoki o'z mohiyatiga ko'ra maxfiy deb hisoblanishi kerak bo'lgan ma'lumotlar sifatida uzatiladigan barcha ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashga majburdirlar.

8-modda. Memorandumning amal qilish muddati va uning tugatilishi

16. Ushbu Memorandum 5 (besh) yil muddatga tuziladi va Tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi. Agar Memorandumning amal qilish muddati tugashiga 30 (o'ttiz) kalendar kun qolganida Tomonlardan hech biri ushbu Memorandumning amal qilishini tugatish istagini bildirmasa, Memorandum har bir keyingi yil uchun uzaytirilgan hisoblanadi.

17. Tomonlarning har biri boshqa tomonni kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin yozma ravishda xabardor qilgan holda ushbu Memorandumni bir tomonlama va muddatidan oldin tugatishga haqli.

9-modda. Yakuniy qoidalar

18. Tomonlar ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan ular o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun barcha zarur choralarni ko'radilar.

19. Ushbu Memorandumga kiritilgan har qanday o'zgartirishlar, agar u yozma ravishda tuzilgan va Tomonlarning har biri tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

20. Tomonlarning har biri boshqa tomonni o'z nomi, manzili, telefon va faks raqamlari, internet manzili o'zgarganligi to'g'risida bunday o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay xabardor qilish majburiyatini oladi.

21. Ushbu Memorandum ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega va har bir tomon uchun bir nusxadan taqdim etiladi.

10-modda. Tomonlarning imzolari

O'zbekiston Respublikasi
Oliy sudi raisi birinchi o'rinbosari

"Farg'ona davlat universiteti"
rektori



I. Muslimov



B. Shermuhammadov

2024-yil "09" oktabr

2024-yil "09" oktabr

Farg'ona shahri

Farg'ona shahri